

PROTSESSIDA UY QAMOG'I TARZIDAGI EHTIYOT CHORASI: MILLIY VA
XORIJUY DAVLATLAR QONUNCHILIGI TAHLLILI, INNOVATION YONDASHUVLAR
VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

A'loxonov Muxammadmirzoxon Adxamxon o'g'li
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-bosqich kursanti

Annotatsiya: Maqolada ishni sudga qadar yuritish bosqichida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarga nisbatan qo'llaniladigan uy qamog'i tarzidagi ehtiyyot chorasining qonunchiligidan joriy qilish zarurati, xorijiy davlatlarning uy qamog'ini qo'llash bo'yicha ilg'or tajribalari hamda ulardan foydalanishning progressiv xususiyatlari ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: protsessual majburlov chorasi, uy qamog'i, elektron nazorat, shaxs huquq va erkinliklari kafolati, jinoyat ishlarini yuritish, sud tomonidan o'rnatilgan taqiqlar (cheklovlari), Home Detention Order

**PRECAUTIONARY MEASURE IN THE STYLE OF HOUSE ARREST IN THE
CRIMINAL PROCESS: ANALYSIS OF NATIONAL AND FOREIGN STATES
LEGISLATION, INNOVATIVE APPROACHES AND DEVELOPMENT TRENDS**

Annotation: In the article, the need to introduce into our legislation a preventive measure in the form of house arrest applied to suspects, accused and defendants at the stage of bringing the case to court, the best practices of foreign countries in the application of house arrest, and the progressive scientific features of their use. analyzed.

Key words: procedural coercion measure, house arrest, electronic control, guarantee of individual rights and freedoms, criminal proceedings, bans (restrictions) imposed by the court, Home Detention Order

Dunyoning barcha mamlakatlarida shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, uning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, jinoyatlarni tez va to'liq ochish, jinoyatdan jabr chekkan shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash, aybsiz shaxslarning javobgarlikka tortilmasligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning jinoyatlarga doir murojaatlarini o'z vaqtida ro'yxatga olish va qonunda belgilangan tartibda hal etish, tergovga qadar tekshiruv amaliyotida shaxsga nisbatan qiyonoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash bilan bog'liq qilmishlar sodir etilishining oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni joriy qilish hamda ushbu sohada xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribani joriy etish obyektiv zaruratga aylanmoqda.¹⁶³

¹⁶³ Tergovga qadar tekshiruv institutini takomillashtirish/M.D.Botayev/ Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi/T.2020

Xususan, so'nggi yillar davomida inson qadrini ulug'lash tamoyili asosida sud-huquq sohasida keng ko'lamlı istiqbolli islohotlar amalga oshrildi va amalga oshrilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad inson manfaatlarini hamma narsadan ustunligini ijtimoiy haotimizda huquqiy kafolatlashdir. Binobarin, jinoyat protsessida shaxs huquqlarini ta'minlashning mexanizmlari mazmunini shaxs huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan jinoyat-protsessual normalar va vositalar hamda shaxs huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga ma'sul bo'lgan davlat organlari hamda alohida shaxslarning faoliyati tashkil qiladi. Jinoyat ishi yurituv bosqichlarida, xususan tergovga qadar tekshiruv, jinoyat ishini qo'zg'atishdan boshlab, uni tergov qilish, sudda ko'rishga tayinlash, ishni mazmunan sudda ko'rish va natijasi bo'yicha sud hujjatlari (hukm, ajrim)ini qabul qilish, hukm (ajrim, qaror)ning ijro etilishini ta'minlovchi sub'ektlar shaxs huquqlarini ta'minlash mexanizmi tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan institutsional asoslar hisoblanadi.

Jahon hamjamiyati globallashuv va raqamlashtirish bilan bog'liq har daqiqada o'zgarib borayotgan tendensiyalarga juda tez sur'atlar bilan moslashish jarayonini boshdan kechirmoqda. Bu holat esa har bir sohada bo'lgani kabi jamoat xavfsizligini ta'minlash va unga daxl qiluvchi omillarni bartaraf etish borasida ham islohotlarga ehtiyoj borligini anglatadi. Zero, jamiyat osoyishtaligiga xavf soluvchi faktorlarning zamonaviy va hatto virtual olamga ko'chgan ko'rinishlariga qarshi hozirgi tezkor davr uchun bir muncha eskirgan ehtiyyot choralar yoki jazo turlari bilan qarshi turib bo'lmaydi.¹⁶⁴ Bundan tashqari, inson huquqlari - eng oliv qadriyat va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash hukumat, uning mas'ul organlari oldidagi birlamchi vazifaga aylanib borayotgan bir paytda, jinoyatchi yoki huquqbuzarning, avvalo, inson ekanligini unutmaslik, unga nisbatan qo'llanilayotgan jazoning imkon qadar insonparvarlik tamoyillariga mos kelishiga erishish ham muhim hisoblanadi.

Jinoyat ishlarini yuritishda protsessual majburlov choralarini qo'llash shaxsning konstitutsiyada nazarda tutilgan huquq va qonuniy manfaatlariga to'g'ridan to'g'ri daxl qiladi. Qonuniy va to'g'ri qo'llash asoslarining mavjudligi, shuningdek, huquq va erkinliklar chekhanishi chegarasining aniq belgilanganligi jinoyat ishini yuritishda qatnashayotgan ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilishda hal qiluvchi omillar sanaladi. O'zbekiston Respublikasi tomonidan tan olingen xalqaro-huquqiy hujjatlarda jinoi ta'qibga uchragan shaxsning huquqlarini cheklashning aniq tartibi belgilangan. Ularda nazarda tutilmagan tarzda shaxs huquqlarini cheklash taqiqlanadi.

Shaxs huquqlarini cheklash bilan bog'liq protsessual harakatlarni o'tkazishda sudning vakolatlarini belgilash haqidagi qoidalar xalqaro huquq normalarida ham o'z aksini topgan. Xususan, "Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiya"ning 5-moddasida shaxsning muhim huquqlarini cheklash

¹⁶⁴ Кадирова, М. (2023). Jinoyat protsessual majburlov choralarini qo'llashni raqamlashtirish imkoniyatlari.

Современные проблемы развития уголовно-процессуального права, 1(1), 81–87

<https://inlibrary.uz/index.php/criminal-procedure-law/article/view/17160>.

bilan bog'liq protsessual majburlov choralari faqat sudning qarori bilan amalga oshirilishi belgilangan. Protsessual majburlov choralarining ichida uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi o'zining alohida jihatlari bilan ahamiyatlidir. Shu ma'noda hozirda jinoyat protsessual qonunchiligi (huquqi)da «**uy qamog'i**» ehtiyot chorasinинг keng qo'llanilishi inson huquqlari bo'yicha xalqaro normalarga ko'ra gumanizmning bir ko'rinishi sifatida talqin qilinmoqda.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni asosida 2014-yil 4-sentabrda, uy qamog'inining ehtiyot choralari tizimiga kiritilishi (O'zbekiston Respublikasi JPKning 242¹-moddasi) qamoqqa olishning muqobil chorasi va mamlakatni jinoi siyosatining bevosita insonparvarligining ifodasi bo'ldi. Xususan, uy qamog'inining jinoi huquqi jazo chorasi sifatidagi muayyan ko'rinishi hisoblangan - ozodlikni cheklash tarzidagi jazo sud tomonidan mahkumni uydan chiqishga to'liq taqiqlashni yoki kunning ma'lum bir vaqtida uni tark etishga nisbatan cheklovlarni tegishli nazoratni amalga oshirishni nazarda tutadi.¹⁶⁵

Ishning holatini, mahkumning shaxsini hisobga olgan holda, sud ushbu turdag'i jazoni tayinlashda quyidagi cheklovlarni qo'llashi mumkin: ommaviy va boshqa tadbirlar o'tkaziladigan joylarga tashrif buyurish, shuningdek ularda ishtirok etish; mahkumning ma'lum ma'muriy hudud ichida harakatlanish erkinligi; muayyan ma'muriy hudud bilan aloqa qilish, shaxslar va aloqa vositalaridan foydalanish. Ya'ni, erkinlikni cheklash dastlabki tergov bosqichida hibsga olish bilan bog'liq bo'limgan ehtiyot choralari, shu jumladan uy qamog'i shaklida qo'llanilgan mahkumlarning jazoning yetarlilikini ta'minlashning samarali jinoyat-huquqiy mexanizmi bo'ldi deb aytishimiz mumkin.

Uy qamog'i - bu gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi tanlash uchun asoslар mavjud bo'lganida uning yoshini, sog'lig'ini, oilaviy ahvolini va boshqa holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan qamoqqa olish maqsadga nomuvofiq deb topilgan taqdirda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchini jamiyatdan to'liq yoxud qisman ajratib qo'yilib, o'zi mulkdor, ijaraga oluvchi sifatida yoki boshqa qonuniy asoslarga ko'ra yashab turgan turar joyda taqiqalar (cheklovlari) yuklatilgan, shuningdek, uning ustidan nazorat amalga oshirilgan holda vaqtincha bo'lgan muddatga ozodlikdan cheklashdir.¹⁶⁶

Uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llashdan ko'zlangan **asosiy maqsad** ayblanuvchi, sudlanuvchi surishtiruvdan, dastlabki tergovdan va suddan bo'yin tovleshining oldini olish; uning bundan keyigi jinoi faoliyatining oldini olish, uning ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga halaqit beradigan urinishlariga yo'l qo'ymaslik, hukmning ijro etilishini ta'minlashdan iboratdir.

¹⁶⁵ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi/ 4-bo'lim Jinoyat protsessida shaxs huquqlarini cheklash asoslari va chegaralari

¹⁶⁶ https://ru.wikipedia.org/wiki/Домашний_арест

Qonunchiligidizga ko'ra, o'ziga nisbatan uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi tanlangan shaxsga quyidagi taqiqlar (cheklovlar) o'rnatilishi mumkin:

1) muayyan shaxslar bilan aloqada bo'lish;

2) xat-xabar olish va jo'natish;

3) har qanday aloqa vositalaridan foydalanish va ular yordamida so'zlashuvlar olib borish;

4) uy-joyni tark etish.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi barcha taqiqlarga (cheklovlargi) yoxud ulardan ayrimlariga duchor etilishi mumkin. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining uy-joyidan chiqishi bo'yicha o'rnatilgan taqiqlarga (cheklov larga) rioya etishi ustidan nazorat amalga oshirilayotganda ichki ishlar organi uning yashash joyida bo'lishini sutkaning istalgan vaqtida tekshirishga haqli. Tekshirish kunduzgi vaqtida ko'pi bilan bir marta va tungi vaqtida ko'pi bilan bir marta o'tkaziladi. Zarur hollarda, uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan shaxsga nisbatan elektron kuzatish vositalari qo'llanilishi mumkin. Uy qamog'ini ijro etish gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining yashash joyidagi ichki ishlar organi zimmasiga yuklatiladi.¹⁶⁷

Xorijiy davlatlar qonunchiligi tahlili shuni ko'rsatadiki, uy qamog'i ehtiyot chorasini qo'llash qamoqqa olish ehtiyot chorasiga juda samarali muqobil tur hisoblanadi. Shu sababli, ko'pgina xorijiy mamlakatlarda uy qamog'ining rivojlanish darajasi turlicha bo'lsada, mazkur ehtiyot chorasi (jazo turi) aksariyat davlatlarda 1980-yillardan beri faol qo'llanilib kelinadi.¹⁶⁸

Misol uchun, **Amerika Qo'shma Shtatlarida** uy qamog'i jazo chorasi sifatida 1984-yildan beri qo'llaniladi va mahkumning doimiy yashash joyida bo'lishini o'z ichiga oladi. Mahkum uy qamog'ida bo'lgan paytda unga spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarni iste'mol qilish taqiqlanadi. Agar ushbu taqiq ikki martadan ortiq buzilgan bo'lsa, mahkum darhol qamoqqa olish ehtiyot chorasiga o'tkaziladi.¹⁶⁹

Buyuk Britaniya tajribasiga ko'ra **uy qamog'i**, sud tomonidan qo'llaniladigan, shaxsi o'zining yashash xonadonida muayyan muddat davomida saqlab turishdan iborat chora hisoblanadi. Hukm jinoiy odil sudlov jarayonining turli bosqichlarida standart qamoqqa olishning muhim alternativi sifatida qaraladi. U butun dunyo bo'ylab jinoiy adliya tizimlarida ishlaydi va ko'pincha juda xilma-xil majburiyatlarni talab qiladi.¹⁷⁰

Qozog'istonda uy qamog'i Qozog'iston Respublikasi Jinoyat Kodeksning 147-moddasi ga asosan sudya tomonidan tayinlanadi va tegishli tartibda nazorat qiluvchi organ tomonidan nazorat qilinadi. Gumonlanuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga

¹⁶⁷ Содиков, С. (2016). Институт хабеас корпус в уголовно-процессуальном законодательстве Республики Узбекистан и перспективы его совершенствования. Обзор законодательства Узбекистана, (4), 71–74.

https://inlibrary.uz/index.php/uzbek_law_review/article/view/13565.

¹⁶⁸ "AC/DC's Phil Rudd Sentenced to House Detention for Eight Months". Us Weekly. 9 July 2015.

¹⁶⁹ Explainer: House Arrest as another form of Custody: What does it mean?/Article/

<https://lawandotherthings.com/explainer-house-arrest-as-another-form-of-custody-what-does-it-mean/>

¹⁷⁰ Juliet Lapidus (January 28, 2009). "You're Grounded! How do you qualify for house arrest?". Slate Magazine.

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME-6, ISSUE-4 (30-APRIL)

nisbatan uy qamog'i qo'llanilganda quyidagi bir nechta cheklashlar qo'llanilishi mumkin:

- 1) turar joyni to'liq yoki ma'lum bir vaqtda tark etishni taqiqlash;
- 2) telefon orqali so'zlashuvlar o'tkazish, yozishmalar jo'natish va aloqa vositalaridan foydalanishni (5-bandida nazarda tutilgan hollar) taqiqlash;
- 3) ma'lum shaxslar bilan muloqot qilishni va uyda biror kimni qabul qilishni taqiqlash;
- 4) elektron nazorat vositalaridan foydalanish va ushbu vositalarni olib yurish majburiyati;
- 5) nazorat telefon qo'ng'iroqlariga yoki boshqa nazorat signallariga javob berish, telefon qo'ng'iroqlarini amalga oshirish yoki surishtiruv organiga yoki gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining xatti-harakatlarini nazorat qiluvchi boshqa organga ma'lum bir vaqtda shaxsan kelish majburiyatini yuklash;
- 6) gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki ularning turar-joyi ustidan kuzatuv o'rnatish, shuningdek ularning turar joyi yoki ularga turar joy sifatida berilgan binolarni muhofaza qilish;
- 7) gumonlanuvchi, ayblanuvchining to'g'ri xulq-atvorini va jamiyatdan chetlanishini ta'minlash bo'yicha boshqa choralar.¹⁷¹

Singapurda uy qamog'i "**uyda hibsda ushslash buyrug'i**" (Home Detendent Order) deb nomlanadi va huquqbuzarlarni qat'iy komendantlik soati qoidalariga muvofiq o'z uylarida qolishlari orqali shaxsning ozodligi cheklanadi. Rasmiy ravishda, 4 haftadan ortiq qamoq jazosining kamida 14 kunini o'tagan mahkumlar, reabilitatsiya dasturi doirasida jazoning qolgan qismini qamoqxona o'rniغا uy qamog'ida o'tashlari mumkin.

Shvetsiya ham uy qamog'ini jazo sifatida faol qo'llayotgan davlatlar qatoriga kiradi. Bu, birinchi navbatda, uch oygacha qamoq jazosiga hukm qilingan fuqarolarga nisbatan keng qo'llaniladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, axloq tuzatish muassasalarida saqlanayotgan mahkumlar soni mazkur davlatda 20 foizga kamaygan.

Fransiyada ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazo muddatining yarmini o'tagan mahkumlarga uy qamog'i jazo chorasi sifatida qo'llaniladi, qolgan yarmi esa oyog'idagi elektron bilaguzuk bilan uyda o'tash mumkin bo'ladi.

Germaniyada bu turdagи jazo faqat mahkumning o'zi roziligi bilan qo'llanilishi mumkin. Shu bilan birga, u majburiyatga ega — uy qamog'ining butun muddati davomida mahkum haftasiga kamida *20 soat ijtimoiy foydali mehnat* bilan shug'ullanishi shart.

Ispaniyada uy qamog'i Ispaniya Jinoyat kodeksida belgilangan qamoq jazosi turlaridan biridir. Bu istisno chora bo'lib, uni hukm e'lon qilingandan so'ng faqat hukmning ijrosini nazorat qilish uchun mas'ul sudyalar, ya'ni hukmni ijro etish sudyalari qo'llashi mumkin. Biroq tergov bosqichida qamoqqa olish qayd etilsa, uy

¹⁷¹ Инструкция о применении залога и домашнего ареста в качестве меры пресечения/ Нормативно правовая база/ https://niiep.keu.kz/regulatory_framework/orders_and_instructions/instrukcia%20dom%20arest%20i%20zalog.php

qamog'i to'g'risidagi qaror tergov sudyasi tomonidan qabul qilinadi. Agar ish allaqachon og'zaki sud muhokamasining predmeti bo'lgan bo'lsa, sud muhokamasining ushbu bosqichidagi sud ushbu turdag'i jazo choralarini qo'llash uchun javobgardir.

Marokashda uy qamog'i o'z fuqarolari va Marokash hududida huquqbazarliklar sodir etgan xorij fuqarolariga nisbatan qo'llaniladi. Marokash Jinoyat protsessual kodeksiga ko'ra Tergov sudi chet el fuqarosi bo'lgan shaxsni, ayblanuvchini, sudlanuvchini sudning *ruxsatisiz chiqib ketishi mumkin bo'lmasan yashash joyini belgilashga haqli*. Yakuniy qaror qabul qilingunga qadar uy qamog'iga rioya qilmaslik uch oydan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Xalqaro qonunchilik tahlillari shuni ko'rsatdiki, huquqbazarlar uy qamog'i ehtiyyot chorasi sifatida muayyan taqiqlarni boshdan kechiradilar, garchi qamoq ehtiyyot chorasi qaraganda ta'sir doirasi nisbatan kamroq bo'lsa ham bu samarali natijaga erishilishiga xizmat qiladi. Jumladan, uy qamog'i *qamoqxonalardagi mahkumlarni va ularga nisbatan davlat tomonidan sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish va jinoyat sodir etgan shaxsga ijtimoiy hayotini tiklashga yordam beradigan mexanizm sifatida e'tirof etiladi*.

Uy qamog'i profilaktik chora sifatida gumon qilinuvchiga yoki ayblanuvchiga nisbatan sud qarori bilan tanlanadi, agar boshqacha, ya'ni nisbatan yengilroq ehtiyyot chorasi qo'llash mumkin bo'lmasa va gumon qilinuvchini yoki ayblanuvchini u yashaydigan turar-joy binolarida jamiyatdan ajratilgan holda nazorat qilish zarurati bo'lsa qo'llaniladi. Biroq ayrim hollarda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining sog'lig'i holatini hisobga olgan holda, tibbiy muassasa uni uy qamog'ida ushlab turish joyi sifatida belgilanishi mumkin.

Uy qamog'i tarzidagi ehtiyyot chorasi qo'llashning **asosiy afzalliklaridan biri shundaki**, hali sud tomonidan aybdor deb topilmagan protsess ishtirokchisiga qamoq ehtiyyot chorasi qo'llashning o'rniga muqobilroq ehtiyyot chorasi qo'llash orqali ham, majburlov chorasi qo'llashning asosiy maqsadiga erishilishi mumkinligi alohida ahamiyatlidir. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida uy qamog'i, ayniqsa, voyaga yetmaganlar uchun foydalidir, ular odatda kichik huquqbazarliklar uchun sud qaroridan oldin uzoq vaqt davomida hibsga olinadi, faqat qaror va hukmdan keyin ozod qilinadi.

Xulosa qilib, shuni aytish joizki, birinchidan, protsessual majburlov choralar, shu jumladan, uy qamog'i tarzidagi ehtiyyot chorasi jinoyat sudlov ishlarini yuritish vazifalarini to'la bajarilishiga xizmat qiladi. Ikkinchidan, protsessual majburlov choralar isbotlash burchi yuklatilgan mansabdor shaxslarga zarur imkoniyatlar yaratadi, protsessning boshqa ishtirokchilariga majburiyatlar yuklaydi. Uchinchidan, protsessual majburlov choralar qonunda qat'iy belgilangan shartlar asosida va tartibda amalga oshiriladi. To'rtinchidan, protsessual majburlov choralarini qo'llashdan asosiy maqsad fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquq va manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET RESURS MANBALARI:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 4-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 14 iyuldagagi “Ichki ishlar organlari tomonidan convoy harakatlarini amalga oshirishda elektron brasletlardan foydalanishni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” 383-sonli qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007 yil 14 noyabrdagi 16-sonli “Sudga qadar ish yuritish bosqichida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyyot chorasingning sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida”gi qarori. <https://lex.uz/ru/docs/1595235>.
7. Бондарев А.А. Предъявление обвинения подозреваемому, в отношении которого применена мера пресечения. https://mvd.ru/upload/site129/folder_page/013/699/474/bondarev.pdf.
8. Кадирова, М. (2023). Jinoyat protsessual majburlov choralarini qo'llashni raqamlashtirish imkoniyatlari. Современные проблемы развития уголовно-процессуального права, 1(1), 81–87. <https://inlibrary.uz/index.php/criminal-procedure-law/article/view/17160>.
9. Содиков, С. (2016). Институт хабеас корпус в уголовно-процессуальном законодательстве Республики Узбекистан и перспективы его совершенствования. Обзор законодательства Узбекистана, (4), 71–74. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/uzbek law review/article/view/13565>.

\